

**IMPACT
FACTOR
9.2**



SEMANTIC SCHOLAR



BASE



Dimensions



Universiteit
Leiden

INDEX



COPERNICUS

INTERNATIONAL

Miasto

Przyszłości

ISSN 2544-980X

www.miastoprzyszlosci.com

**Open access
Indexed Research
Journal From
Poland**

Table of Content - Volume 44 (Jan 2024)

No	Paper Title	Author Name	Page No
51	НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ ЛАСКАТЕЛЬНОСТИ В ПОЛЬСКОМ, ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	Зуфарова Севара Муратджановна	257-259
52	O'zbek Milliy Realialarining Badiiy Matn Tarjimasida Madaniy Mazmuni Ochib Beruvchi Lisoniy Birlik Sifatida Qo'llanilishi	Z. B. Djalilova, N. O. Yuldashova	260-263
53	Ўзбек Болалар Шеърятда Қўлланган Фонографик Воситалар	Дилафруз СОБИРОВА	264-270
54	Raqamli Muhitda Oliy Ta'lim Samaradorligini Oshirish Usullari: Chet Tili Va Raqamli Kompetentsiyalarni Shakllantirish	Valiyeva Nasiba Xadiyatullayevna	271-278
55	Rivojlantiruvchi Markazlarda Bolalarni Aqliy Rivojlantirish Texnologiyasi	Muhammadjanova Nozima Turg'unboy qizi	279-282
56	Biologiya Fanini O'qitishda Axborot Texnologiyalaridan Foydalanish	Normuratova Gavhar Shergobilovna	283-285
57	ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	Сулайманов С.А, Каюпова М.	286-293
58	LINGUOCOGNITIVE MODELS OF EMOTIONAL CONCEPTS	Davlyatova Gulchehra Nasyrovna, Mullaganieva Medine	294-297
59	Boshlang'Ich Sinflarda O'Qish Darslarida O'Qish Malakalarining Sifatlarini Shakllantirish	Xo'jamberdieva Fotima Ne'matovna	298-300
60	Effect Of Various Planting Schemes On Phenological Parameters Of Sweet Pepper	S. M. Sadullayev, D. M. Abdullayev , M. M. Xajiyev	301-303
61	Ранг Англлатувчи Лексемаларнинг Француз Ва Ўзбек Тилларидаги Қийёсий Таҳлили	Қудратов С	304-307
62	Исследование Виноградной Выжимки Темных Сортов Винограда Для Получения Пищевого Красителя	Муминов Нажмиддин Шамсиддинович, Одинаев Мирзамад Исаевич	308-319
63	Разработка Технологических Режимов И Параметров Получения Энокрасителя Из Красных Сортов Виноградной Выжимки	Одинаев Мирзамад Исаевич , Муминов Нажмиддин Шамсиддинович	320-328
64	"Maktabgacha Kichik Yoshdagi Bolalarni Tabiat Bilan Tanishtirishga Innovatsion Yondashuv"	Jovliyeva Nasiba Toshbo`riyevna	329-330
65	PYTHON DASTURLASH TILIDA RO'YXATDAN O'TISH ILOVASI ISHLAB CHIQUISH	Qahhorova Nargiza Hayit qizi	331-335
66	Application And Role Of Creative Exercises In Teaching English Grammar At University	Uzakova Gulizebo Galibdjanovna	336-338
67	Профессионально-Ориентированное Обучение Английскому Языку Будущих Специалистов В Вузах	Хасанова Дилдора Шухратовна	339-343
68	Results Of Drug Treatment Of Hemangiomas Of The Scalp In Children And Infants	Karimov M. A, Dzhamalov Zh. B, Abdulkhakimov S. A., Irisova L. F, Nurmatova Kh. H, Ikramova F.D	344-348
69	The Importance Of Information Technologies In Protecting The Young Generation From Information Attacks In The Process Of Globalization	Halimjonov Ulug`bek Nasirjon ugli	349-351

O'zbek Milliy Realiyalarining Badiiy Matn Tarjimasida Madaniy Mazmuni Ochib Beruvchi Lisoniy Birlilik Sifatida Qo'llanilishi

Z. B. Djalilova¹, N. O. Yuldashova²

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'lum bir xalq madaniy me'rosidan o'rin olgan milliy koloritning eng muhim jihatini ifodalovchi tushuncha-realiyalar haqida ma'lumot berilgan. Xususan, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida uchraydigan milliylikni ifodalovchi so'zlarning Karol Ermakova tarjimasida ingliz tilida berilish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: realiya, milliy kolorit, milliy so'zlar, madaniyatlararo munosabat, transkripsiya, transliteratsiya.

Badiiy adabiyotlarda milliy koloritni ifodalaydigan milliy realiyalar juda ko'p. Ularni shu milliylik ruhini yo'qotmasdan kitobxonga yetkazib berish badiiy tarjimashunoslik bilan shug'ullanuvchilardan kata mas'uliyat talab qiladi. Tarjima juda nozik jarayon bo'lib, bunda tarjimon bor mahoratini qo'llab uni qayta yaratish ustida juda ko'p izlanishlar olib borishi kerak bo'ladi. Bir millatning milliy koloritini yo'qotmagan holda tarjimada eng maqbul usullardan foydalanib o'sha asar va tarixiy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy muhitni aniq yetkazib bera olgan tarjimonni o'z ishining ustasi deya olamiz. Masalan o'zbek millatida mavjud realiyalar boshqa tillarda bo'lmasligi yoki mazmun jihatdan farq qilishi mumkin. Bu hodisa har bir tilga xosdir asl holda holda tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda transliteratsiya yoki transkripsiya usulidan foydalanish ancha samarali usul hisoblanadi deydi tilshunos olim E.Ochilov o'zining "Badiiy tarjima masalalari" kitobida. [2,38]

Madaniyatga xos so'zlarni boshqa madaniyatga xos xalqlarga yetkazib berish jarayoni marakkab masala hisoblanadi. Masalan, biror bir xalqqa oid milliy taomni boshqa bir xalq vakiliga tushuntirib berish tarjimonda qiyinchilik olib keladi. Chunki bu taomning mazasi va ta'mi, qay paytda yeyilishi ham o'sha tushuntirilayotgan xalq vakili uchun notanish bo'lganligini inobatga olish zarur. Bularga o'zbeklarning milliy taomlari sirasiga kiruvchi realiyalardan *sumalak*, *norin*, *halim*, *chuchvara* kabilar misol bo'la oladi. Bularni esa to'g'ri tushuntirib berish esa tarjimonlar zimmasidagi vazifa hisoblanadi.

METODLAR TAHLILI

Badiiy adabiyotlarda uchraydigan realiyalarni tarjima tilida to'liq va aniq ifodalash uchun tarjimondan har bir realiyani o'rganish ustida juda chuqur izlanishlar va tadqiqotlar olib borishi kerakligi, ularga notanish bo'lgan realiyalarni mazmunan chuqur o'rganilishi lozimligi aks holda milliylikni ifodalovchi so'zlarning ma'no jihatiga ziyon yetishi ko'zda tutiladi. Buning uchun biror bir millatga, xalqqa tegishli bo'lgan realiyalarni badiiy adabiyotlarda to'g'ri va aynan o'sha talqinda yetkazib bera olish uchun tarjimonlardan muayyan millatning turmush tarziga kirib borish, ular bilan hamkorlikda ishlash, ularning urf-odatlarini, kundalik turmush tarzini chuqur tushuna olish talab etiladi. Buning uchun esa tarjimonlar zimmasiga ulkan mashaqqat va mas'uliyat yuklanadi. Har bir tarjimada berilayotgan badiiy asar zamirida o'sha muayyan xalqning asrlar davomida avloddan-avlodga me'ros bo'lib qolayotgan urf-odatlarini, an'analari va madaniyati aks ettiriladi. Buni tarjimada yaqqol bera olish va o'sha millatning milliy realiyalarini dunyo xalqlariga yetkaza olish ham bir mahorat hisoblanib, tarjimonning o'z ishining mukammal ustasi ekanligini ko'rsatib beradi.

Har bir tarjimon muayyan bir asar tarjimasida o'ziga qulay bo'lgan tarjima usullardan foydalanadi. Bular sirasiga *transkripsiya* usuli so'zning harflarini o'zgartirish orqali tarjima tilidagi boshqa

¹ Ph.D, f.f.f.d., BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti

² BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti



harflarga moslashtirish usuli hisoblanadi. Bunday usulni qo'llanilishi ma'lum xalq madaniyatiga xos tushunchalarning boshqa madaniyatlarga keng yoyilishini targ'ib qiladi. Masalan: "hujra", "xurjun", "ko'rpacha", "adras", "supa", "ariq" kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi.

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridagi milliy so'zlarning Karol Ermakova tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinganda ham *transkripsiya* metodidan unumli foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilida (P.Qodirov)	Robiya boshiga otasining qora jun <i>chakmonini</i> yopinib chiqqan ekan.[5,4]
Ingliz tilida tarjimada berilishi (K.Ermakova)	Robia had hastily thrown her father's black wollen <i>chekmen</i> her head as she hurried out of the house to meet Tahir.[6,18]

Keltirilgan misolda *chakmon* so'zi o'zbek madaniyati belgisini ifodalovchi realiyalar sirasiga kiradi. Bu aslida o'zbek erkaklari uchun odatda qish kunlarida issiq kiyim turi sifatida kiyishlariga mo'ljallangan, junli matodan tikilgan ustki kiyim hisoblanadi. Bu erkaklar uchun uzun to'n vazifasini bajarib kelgan. Hozirgi kunda ham yaylovlarda cho'ponlar chakmonlardan isinish maqsadida foydalanib kelish moqda.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zga quyidagicha izoh keltirilgan:

Chakmon – odatda jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki to'n. Bu ham o'zbek millatiga xos erkaklar kiyim turi hisoblanadi. [1,448]

Transliteratsiya usulidan tarjimada foydalanishda ma'lum bir xalqqa oid tushunchalarni ifodalovchi milliy so'zlarni tarjimada aks ettirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bularga uy-ro'zg'or buyumlarining nomlari, kiyim-kechaklar, urf-odatlar, milliy taomlar, tadbirlar va marosimlarning nomlariga, ma'lum bir xalqning o'tmishini, madaniyatini, turmush shaklini ifodalaydigan tushuncha va so'zlarning badiiy asarni tarjima qilayotgan tarjimon tomonidan *transliteratsiya* usulida berilishi, kitobxonga o'sha tarixiy jarayon haqida ma'lum bir tushuncha paydo bo'ladi. Bunday tarjima usulini ham K.Ermakovaning "Yulduzli tunlar asarining ingliz tilidagi tarjimasi "Starry Nights" asarida ham uchratish mumkin.

O'zbek tilida (P.Qodirov)	Urush tahlikasi qanchalik kuchli bo'lmasin, <i>dasturxon</i> atrofida yig'ilgan odamlar ro'zasini ochayotgan paytda ochlik va tashnalikdan qiynalgan vujudlari rohatlanib, dunyo g'amlari bir pasga bo'lsa ham xayollaridan uzoqlashdi. [5,7]
Ingliz tilida tarjimada berilishi (K.Ermakova)	War is was but people still have to eat and drink. Gathered round the evening <i>dastarkhan</i> , people could forget about everything else, at least for a while.[6,22] (Dastarkhan -sometimes translated as "tablecloth", this term refers to a cloth usually spread out on the floor or low table on which food is served.)

Bunda *dasturxon* o'zbek madaniyati belgisini ifodalovchi realiyalar sirasiga kiradi. Keltirilgan misolda tarjimon *transliteratsiya* usulidan foydalangan bo'lib, milliy koloritni buzmaganda holda kitobxonga o'zbek xalqiga xos hozirgi kundalik hayotda ham ishlatilayotgan uy-ro'zg'or buyumining asl ma'nosini buzmaganda yetkazib bergan. Bunday milliy so'zlarning o'z nomi bilan berilishi bir millatning ma'lum davrdagi insonlar hayotini aks etirish, real hayot tarzini ifodalab berishdan iboratdir. Transliteratsiya usulini qo'llaganda ba'zan matn ostida yoki asar ostida tarjimonlardan izoh berish talab etiladi. [2,44]

Chunki bu usulni milliy so'zlarda qo'llaganda kitobxonga o'sha berilayotgan realiya yoki millatga xos so'z xususida tushuncha paydo bo'lishi uchun:

Dastarkhan -sometimes translated as "tablecloth", this term refers to a cloth usually spread out on the floor or low table on which food is served.



Kalkalash usuli usulidan ham tarjimada keng foydalanib kelinmoqda. Bu usulda soʻz yoki soʻz birikmalari harfma-harf yoki soʻzma-soʻz aynan shu soʻzga mos keladigan soʻz yoki soʻz birikmasi tanlab olinib, tarjima qilinadi. Kalkalash usuli tarjimada eng koʻp foydalaniladigan va qulay boʻlgan usullardan biri boʻlib hisoblanadi. Bunday usulda tillarda mavjud boʻlmagan tushunchalarni tarjima qilinayotgan til doirasida ifodalash samarali hamda faol usul sifatida tarjimonlar tomonidan qabul qilingan K.Ermakova ham bu usuldan oʻzining asar tarjimalarida qulay usul sifatida foydalangan.

Oʻzbek tilida (P.Qodirov)	<i>Mirzo oʻttiz yoshlik, xushqomat Qosimbekka qalʼa ichida bir toshhovuz qurdirish va uni suv bilan toʻldirish amrini berdi.</i>
Ingliz tilida tarjimada berilishi (K.Ermakova)	<i>The Mirza charged thirty-year-old Qasimbeg - a lean man who could quickly deal with any tasks –with building another stone cistern, sending out water carries and filling into the brim.</i>

Ayrim xorijiy tillarga xos soʻzlar, atamalar borki ularni umuman tarjimada qoʻllab boʻlmaydigan hollar ham uchraydi. Chunki ayrim soʻzlar boshqa bir millatning tili va madaniyatiga toʻgʻri kelmay qolishi mumkin. Bunda tarjimonlardan oʻsha soʻzlarni yoki ayrim hollarda esa gaplarni ham “*tushirib qoldirish*” (zero translation) usulidan foydalanish talab etiladi. Tarjimonlar yuqorida koʻrsatib oʻtilgan transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash usullaridan ayrim millatga xos soʻzlarni foydalanishga muhtojlik sezmaganda, yaʼni ularni tarjimada qoʻllash kerak emas deb hisoblagan paytda “*tushirib qoldirish*” (zero translation) usulidan samarali foydalanadilar.

Oʻzbek tilida (P.Qodirov)	“bu yerda qolish xavfli...!” <i>Uning xina qoʻyilgan qoʻllari gulday chiroyli.... Yomgʻirda hoʻl boʻlib ogʻirlashgan chakmon uning nozik boʻyniga ogʻirlik qildi. Robiya chakmonni yelkasiga tushirdi.[5,4]</i>
Ingliz tilida tarjimada berilishi (K.Ermakova)	“ It is dangerous here...!” Robia had hastily thrown her father’s black woolen chekmen her head as she hurried out of the house to meet Tahir. It was soaked with rain now, heavy and unwieldy, and Robiya let it side down to her shoulders[6,18]

Bu keltirilgan misolda qizning *xina* qoʻyilgan qoʻllari izohlangan gap tarjima qilinmay tushirib qoldirilgan. Chunki xina faqat oʻzbek hamda hind millatiga xos realiya sirasiga kirganligi uchun ularni kitobxonga tushuntirib berishda noqulayliklar va tushunmovchiliklar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida tarjimondan shu aynan “tushirib qoldirish” usulidan foydalanishni talab etgan. Ammo bu tarjima qilinayotgan asarga gaplarning oʻzro bogʻlanishida hech qanday salbiy oʻzgarish sezilmagan.

Bundan tashqari tarjimonlar asar tarjimasida **sharh qoʻshish** yoki izohlab berish usullaridan ham foydalanishadi. Buning yorqin namunasini K.Ermakova tomomidan qoʻllangan tarjimalarda koʻrishimiz mumkin:

Oʻzbek tilida (P.Qodirov)	Ot ariqdan sakrab oʻtayotganda Boburning boshi ariq boʻyida oʻsgan oʻrikning kata bir shoxiga uriladigan edi.[5,34]
Ingliz tilida tarjimada berilishi (K.Ermakova)	The horse almost banged its head on the mighty branches of uryuk apricot trees as it jumped over ariqs . (An ariq is a fairly wide manmade channel for irrigation and /or drinking water) [6,51]
Oʻzbek tilida (P.Qodirov)	Non yeb, bir kosadan qatiqli mastava ichganlaridan keyin Tohir Andijonga ketish haqidagi gapning uchini chiqarishga chogʻlandi.[5,7]
Ingliz tilida tarjimada berilishi (K.Ermakova)	The bread was tastyand so was mastava soup garnished with sour milk.[6,22] Mastava- a runny dish usualy made of rice, meat and vegetables and served with sor milk or yoghurt (traslator’s note)

Bunday tarjima usullaridan foydalanilganda asarning badiiy mazmuniga hech qanday ziyon yetmaydi aksincha kitobxonga tushunarli va oʻsha davr muhiti haqida aniq tasavvur shakllantiriladi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarjimonlardan badiiy asarlardagi biror millatning milliylik ruhini yo'qotmagan holda, o'sha davr muhitini, madaniyati va urf-odatlarini, yashash tarzini aniq va tushunarli qilib yetkazib bera olish katta mas'uliyat talab qiladi. Har bir tarjimon tarjima usullaining qaysi vositasida foydalanganda ham hat bir qo'llayotgan so'z va iboralari milliylik ruhini yo'qotmasligi lozim. Bunda tarjimada tanlanayotgan usulning aynan mos kelishi hamda berilgan matnning uslubiy va janr xususiyatlaridan kelib chiqib tarjima qila olish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida realiyalarni tarjima qilishning bir necha usullari haqida ma'lumot berildi. Ularni tarjimada berishdan tashqara tarjimondan madaniyat haqida ham ma'lumotga ega bo'lish talab etilishi kerakligini hisobga olish muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Madvaliyev, N.Mahkamov "O'zbek tilining izohli lug'ati"- Toshkent.:O'zbekiston 2021,- 103,448 betlar.
2. E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti.- Toshkent. 2012.- 78 bet
3. H.Hamroyev Milliy xos so'zlar- realiya va badiiy tarjima// Tarjima madaniyati(maqolalar to'plami).-Toshkent.: 1983.- 158bet
4. N.Komilov. Bu qadimiy sanat. – Toshkent : Adabiy meros, 2000,-109 bet
5. P.Qodirov. Yulduzli tunlar – Toshkent.: 2018.-4 bet
6. K.Ermakova "Starry Nights" – Fransiya.: Nouveau Monde.
7. G'.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent.: O'qituvchi. 1978.
8. Zarnigor, D. (2021). Phytonymic comparison as a means to create image in poetry. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11 (9), 693-698.
9. Djalilova, Z. (2020). Ж. КИТС ВА Э. БРОНТЕ ШЕЪРЛАРИДА ШАХС СИФАТЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ ФИТОНИМЛАРНИНГ ЎЗБЕКЧА ТАРЖИМАДА БЕРИЛИШИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).

